

MULKDORLARDA IJTIMOIY MAS'ULIYAT TUYG'USINING SHAKLLANISHIDA MA'NAVIY QADRIYATLARNING O'RNI

Raxmankulov Farxod Raximkulovich

Termiz davlat pedagogika instituti, "Falsafa, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi katta o'qituvchisi

РОЛЬ НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЧУВСТВА СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ У СОБСТВЕННИКОВ

Рахманкулов Фарход Рахимкулович

Термезский государственный педагогический институт, Старший преподаватель кафедры Философии, основы духовности и правового образования



e-mail:

fedizara07@gmail.com

Orcid: 0009-0000-2638-0724

THE ROLE OF MORAL VALUES IN FORMING A SENSE OF SOCIAL RESPONSIBILITY IN OWNERS

Rakhmankulov Farkhod Rakhimkulovich

Termez State Pedagogical Institute, Senior Lecturer, Department of Philosophy, Fundamentals of Spirituality and Legal Education

Annotatsiya: Mazkur maqolada mulkdorlarning ma'naviy qadriyatlari va ularning ijtimoiy mas'uliyati o'rtaşıdagи o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Mulk egalari jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligida muhim o'rın tutishi bilan birga, ularning axloqiy qadriyatlari va ma'naviy tamoyillari tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Tadqiqotda milliy va mulkdorlarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish mexanizmlari, jamiyat oldidagi burchlari hamda ularning barqaror rivojlanishdagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: mulkdor, ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat, tadbirkorlik madaniyati, barqaror rivojlanish mulk egasi, tadbirkor.

Аннотация: В данной статье анализируется взаимосвязь между духовными ценностями собственников и их социальной ответственностью. Наряду с тем, что собственники играют важную роль в экономической и социальной стабильности общества, их моральные ценности и духовные принципы являются определяющими факторами в формировании культуры предпринимательства. В исследовании освещаются механизмы повышения социальной ответственности нации и собственников, их обязанности перед обществом и их роль в устойчивом развитии.

Ключевые слова: собственник, духовные ценности, социальная ответственность, культура предпринимательства, устойчивое развитие собственник, предприниматель.

Abstract: This article analyzes the relationship between the spiritual values of owners and their social responsibility. Along with the fact that owners play an important role in the economic and social stability of society, their moral values and spiritual principles are crucial factors in shaping the culture of entrepreneurship. The study highlights the mechanisms for increasing the social responsibility of the nation and owners, their responsibilities to society and their role in sustainable development.

Key words: owner, spiritual values, social responsibility, culture of entrepreneurship, sustainable development owner, entrepreneur.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti va jamiyat barqarorligi ko‘p jihatdan mulkdorlarning ijtimoiy mas’uliyati va ma’naviy qadriyatlariga bog‘liq. Xususiy mulk egalari nafaqat iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, balki ijtimoiy taraqqiyotga hissa qo‘shuvchi muhim qatlam sifatida ham e’tirof etiladi. Shu sababli, ularning faoliyatida moddiy manfaat bilan bir qatorda, axloqiy tamoyillar va ijtimoiy javobgarlikning uyg‘unlashuvi dolzarb masala hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda tadbirkorlarning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish, ularning o‘z faoliyatini faqat daromad olish bilan cheklamasdan, jamiyat farovonligiga xizmat qiluvchi axloqiy tamoyillarga asoslangan holda yuritishiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Mazkur maqolada mulkdorlarning ma’naviy qadriyatlar va ularning ijtimoiy mas’uliyatini belgilovchi omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining ma’naviy-axloqiy tamoyillarga asoslangan holda rivojlanishini ta’minalashga qaratilgan yondashuvlar va mexanizmlar yoritiladi. Mulkdorlarda ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usi hamda ma’naviy axloqiy qadriyatlar borasida jahon olimlaridan Milton A.Kerrol Fridman, A.Bagdasarova, N.Belyaev, o‘zbek olimlaridan I.Ergashev, V.Qo‘chqorov, B.Matchonovalar o‘z ilmiy ishlarida ushbu muammoni tadqiq etishgan. Tadqiqot jarayonida tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash hamda fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Mulkdorlarning ijtimoiy mas’uliyati yuzadan qator tadqiqotchilar o‘z ilmiy izlanishlarini olib borgan bo‘lib, ular ushbu muammoni turli nuqtai nazarlardan tahlil qilishgan. Masalan Milton Fridman iqtisodiyot va ijtimoiy mas’uliyat masalalarini yoritishda taniqli olim hisoblanadi. Uning fikriga ko‘ra, “kompaniyalar va mulkdorlarning asosiy mas’uliyati daromad olish va aksiyadorlarga foya keltirishdir, ijtimoiy mas’uliyat esa davlat va boshqa ijtimoiy institatlarning vazifasi deb hisoblanadi” [1]. A.Kerrol esa o‘z tadqiqotlarida ijtimoiy mas’uliyat piramidasini yaratgan. U

“korporativ ijtimoiy mas’uliyat (KIM) konsepsiyasini kengaytirgan. A.Kerrolning modeli iqtisodiy, huquqiy, axloqiy va xayriya majburiyatlarini qamrab oladi [2].

Ushbu olimlarning tadqiqotlari ijtimoiy mas’uliyatni kengroq ko‘lamda o‘rganishga yordam beradi va mulkdorlarning jamiyat oldidagi vazifalarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Mazkur yondashuvlar tadbirkorlikning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatini ham oshirishga xizmat qiladi.

Mulk tushunchasi, mulk egaligi va ijtimoiy mas’uliyat borasida o‘zbek olimlari ham qator tadqiqot ishlarini olib borishgan. “Ijtimoiy mas’uliyat – shaxsdan boshlab, davlat va jamiyat qurilishi va uni boshqaruviga tomon tizim sifatida iyerarxik tarzda tavsiflanadi” [3]. Mazkur ta’rif tor doirada yozilgan bo‘lib, shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy mas’uliyat – bu shaxs, jamoa yoki tashkilotning jamiyat oldidagi majburiyatlarini anglash va bajarish jarayoni bo‘lib, u ijtimoiy manfaatlar, axloqiy tamoyillar va qonuniy talablar bilan uzviy bog‘liqidir. Ushbu tushuncha insonlarning yoki tashkilotlarning faqat o‘z manfaatlarini ko‘zlab emas, balki jamiyatning umumiy farovonligini oshirishga qaratilgan harakatlar qilishi zarurligini ifodalaydi. Ijtimoiy mas’uliyat tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, u iqtisodiy, ekologik, huquqiy va ma’naviy jihatlarni o‘z ichiga oladi [4]. Masalan, tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy mas’uliyat nafaqat qonunlarga rioya qilishni, balki xodimlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish kabi faoliyatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Shaxsiy darajada ijtimoiy mas’uliyat insonning o‘z oilasi, mahallasi va kengroq jamiyat oldidagi burchclarini anglashida namoyon bo‘ladi. Bu tushuncha jamiyat taraqqiyoti uchun muhim bo‘lib, insonlarning o‘zaro hamkorlik,adolat va ijtimoiy barqarorlik tamoyillariga asoslangan holda yashashiga xizmat qiladi. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar borasida dotsent B.Matchanova quyidagicha ta’kidlaydi: “Ular odamlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va ishonchni mustahkamlash orqali ijtimoiy muhitni yaxshilaydi. Axloqiy qadriyatlar turli jamiyatlar uchun zarur bo‘lgan umumiy axloqiy qoidalar va normalarni belgilaydi, ular fuqarolarning

bir-biriga munosabatida hal qiluvchi ahamiyatiga ega. Axloqiy qadriyatlar shaxsnинг jamiyatdagi о‘rnini belgilaydi va uning harakatlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi” [5].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Mulkdorlar qatlamida ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bir necha omillar ta’sirida shakllanadi. Ushbu qadriyatlar jamiyatning umumiyo rivojlanish darajasi, huquqiy tizimi, iqtisodiy sharoitlar va ma’naviy-madaniy meros bilan uzviy bog‘liqdir. Quyida ularning shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi:

1. Oila va tarbiya–mulkdor shaxslarning axloqiy qarashlari bolalik davridan shakllanib, oiladagi tarbiya muhim rol o‘ynaydi. Ota-onaning halollik,adolat va mehnatsevarlik haqidagi tushunchalari tadbirkorning keyingi faoliyatida namoyon bo‘ladi.

2. Ta’lim va ilmiy muhit – iqtisodiy bilim bilan bir qatorda, axloqiy tamoyillar ham ta’lim tizimida shakllantiriladi. Biznes va tadbirkorlik sohasida ta’lim olgan shaxslar nafaqat bozor qonunlarini, balki korporativ ijtimoiy mas’uliyatni ham tushunishlari lozim. Shuningdek, ma’naviyat va huquqiy madaniyat bo‘yicha uzlucksiz o‘qitish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Jamiyat va ijtimoiy muhit –tadbirkorlarning ijtimoiy muhit bilan doimiy aloqada bo‘lishi ularning axloqiy qadriyatlarini shakllantiradi. Ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va jamoat-chilik nazorati tadbirkorlarga axloqiy mezonlar asosida faoliyat yuritish zarurligini eslatib turadi.

Mulkdorlarning ma’naviy qadriyatlarini va ijtimoiy mas’uliyati jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Ularning axloqiy tamoyillari va ijtimoiy burchni anglash darajasi iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikka bevosita ta’sir qiladi. Mulk egalari nafaqat shaxsiy daromad olishni, balki jamiyat oldidagi mas’uliyatini ham chuqur anglagan holda faoliyat yuritishi lozim [6].

Ijtimoiy mas’uliyat – bu faqat iqtisodiy faoliyat yuritish emas, balki jamiyat taraqqiyotiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatish maqsadida amalga oshiriladigan harakatlar majmuasidir. U quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi: 1) mahalliy aholini ish bilan ta’minalash orqali ijtimoiy barqarorlikka hissa qo‘sish; 2) madaniyat, sport, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalariga yordam ko‘rsatish; 3) yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash, biznes etikasi va mas’uliyat tamoyillarini shakllantirish.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, Mulkdorlarning ijtimoiy mas’uliyati ularning ma’naviy qadriyatlariga asoslanishi kerak. Agar tadbirkor halollik va adolatni o‘z hayotining ajralmas qismi deb bilsa, u jamiyatga foyda keltiradigan biznes yuritadi. Bu esa quyidagi natijalarga olib keladi: ijtimoiyadolat tamoyillariga rioya qilinadi, iqtisodiy taraqqiyot ma’naviy rivojlanish bilan uyg‘unlashadi, tadbirkor va jamiyat o‘rtasidagi ishonch mustahkamlanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, axloqiy tamoyillarga asoslangan tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy taraqqiyotni ta’minalaydi, balki ijtimoiy barqarorlik va adolatning qaror topishiga ham xizmat qiladi. Ma’naviy yetuk mulkdor jamiyat farovonligiga befarq bo‘lmaydi. U nafaqat iqtisodiy yutuqlarga intiladi, balki o‘z faoliyati orqali jamiyatga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishga harakat qiladi. Shu sababli, tadbirkorlarning ma’naviy qadriyatlarini rivojlanish va ijtimoiy mas’uliyat hissini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar mustahkam iqtisodiy hamda barqaror ma’naviy muhitni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Milton Friedman. The Social Responsibility of Business Is to Increase Its Profits. The New York Times Magazine, 1970.
2. Archie B. Carroll “The Pyramid of Corporate Social Responsibility: Toward the Moral Management of Organizational Stakeholders” Business Horizons 1991. – P. 39-48.
3. Ergashev I. Shaxs ma’naviy kamolotida erkinlik va ijtimoiy mas’uliyat uyg‘unligi mavzusidagi fal.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent. 2011. – 132 b.
4. Рахманкулов, Ф. Р. (2023). Жамиятда мулкдорлар қатламининг шаклланиши ва унинг ўзига хос жиҳатлари. Философия и право, 25 (2), 227-230.
5. Matchanova, Barno Irkinovna (2024). Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning jamiyat ijtimoiy barqarorligidagi roli. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4 (10), 392-398.
6. Raxmankulov, F. R. (2024). Vatanparvar mulkdorlarni tarbiyalash bugungi davrning dolzarb vazifasi. Academic research in educational sciences, 5(2), 536-543.